



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 2**

**2026**

## **O‘ZBEKISTON KULOLCHILIK SAN’ATI TARIXSHUNOSLIGI: XX ASR TADQIQOTLARI MISOLIDA**

**Bobir Odilov**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, dotsent, PhD

### **Annotatsiya**

XX asrda O‘zbekiston kulolchilik san’ati tarixi qanday o‘rganilgan, usullar qanday o‘zgargan va nimalar aniq emas – bularning bari maqolada batafsil yoritilgan. Asosiy maqsad – kulolchilikni o‘rganish qanday rivojlanganini baholash, nimalar o‘zgarganini bilish va nimalar hali ham savolligicha qolayotganini aniqlash. Bunda tarixshunoslik, qiyosiy tahlil, manbalarni o‘rganish va rasmlarni tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, ma’lumotlar yig‘ishdan ijtimoiy-madaniy talqinga o‘tilgani, mahalliy maktablar (Rishton, G‘ijduvon, Xiva, Samarqand) yanada chuqur o‘rganilganligi, bezaklar ma’nosi va ustalar atamalariga yangicha yondashuvlar paydo bo‘lganligi kabi asosiy jihatlar ko‘rsatib o‘tilgan. Sovet davrining ta’siri, bezaklarning ma’nolari, globallashuv va turizmning roli, mustaqillik davridagi yangi tadqiqotlar ham muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** kulolchilik san’ati, O‘zbekiston kulolchigi, tarixshunoslik, xalq amaliy san’ati, mahalliy maktablar, bezak-naqshlar, ishqoriy sir, metodologik o‘zgarishlar, madaniy meros, semantik talqin.

## **ИСТОРИОГРАФИЯ УЗБЕКСКОГО ГОНЧАРНОГО ИСКУССТВА: НА ПРИМЕРЕ ИССЛЕДОВАНИЙ XX ВЕКА**

**Одиллов Бобир**

Ташкентский государственный университет востоковедения, доцент, PhD

### **Аннотация**

В статье подробно рассматривается, как в XX веке изучалась история узбекского гончарного искусства, как менялись методы исследования и какие вопросы до сих пор остаются неясными. Основная цель состоит в оценке развития изучения гончарства, выявлении произошедших изменений и определении проблем, которые по-прежнему остаются открытыми. В работе использованы такие методы, как историографический и сравнительный анализ, источниковедческий подход, а также анализ изобразительных материалов. Особое внимание уделено переходу от простого сбора сведений к социально-культурной интерпретации, более глубокому изучению локальных школ (Риштан, Гиждуван, Хива, Самарканд), появлению новых подходов к трактовке смыслов орнамента и терминологии мастеров-гончаров. Также обсуждаются влияние советского периода, семантика декоративных элементов, роль глобализации и туризма, а также новые исследования, возникшие в период независимости.

**Ключевые слова:** гончарное искусство, узбекская керамика, историография, народное прикладное искусство, местные школы, орнаменты, щелочная глазурь, методологические изменения, культурное наследие, семантическая интерпретация.

## **HISTORIOGRAPHY OF UZBEK POTTERY ART: A CASE STUDY OF 20TH-CENTURY RESEARCH**

**Bobir Odilov**

Tashkent State University of Oriental Studies, Associate Professor, PhD

**Abstract**

In the twentieth century, how the history of Uzbek pottery art was studied, how research methods changed, and what issues remain unresolved are all examined in detail in the article. The main aim is to assess how the study of pottery has developed, to identify what has changed, and to determine which questions still remain open. The study employs such methods as historiographical analysis, comparative analysis, source studies, and the analysis of visual materials. It also highlights key aspects such as the shift from mere data collection to socio-cultural interpretation, the more in-depth study of local schools (Rishtan, Gijduvan, Khiva, Samarkand), and the emergence of new approaches to the interpretation of decorative motifs and the terminology of master potters. In addition, the influence of the Soviet period, the meanings of ornamentation, the role of globalization and tourism, and new research trends in the period of independence are discussed.

**Key words:** ceramic art, Uzbek ceramics, historiography, folk applied art, local schools, ornaments, alkaline glaze, methodological shifts, cultural heritage, semantic interpretation.

O‘zbekiston kulolchilik san’ati Markaziy Osiyo madaniy merosining eng qadimgi va uzluksiz rivojlangan sohalaridan biridir. Arxeologik topilmalarga ko‘ra, sopol ishlab chiqarish an’analari miloddan avvalgi II–I ming yillikka borib taqaladi. Afrosiyob, Varoxsha, Payariq va Termiz kabi yodgorliklardagi glazurovanniy buyumlar bu san’atning yuqori texnologik va badiiy darajasini tasdiqlaydi. Islomiy davrda (IX–XII asrlar) O‘rta Osiyo kulolchiligi dunyo miqyosida mashhur bo‘ldi, xususan, ishqoriy sir (alkaline glaze) texnologiyasi va murakkab o‘simlik-geometrik naqshlar bilan (Peshcherova, 1959).

XX asrda bu meros Rossiya imperiyasi bosqini, Sovet Ittifoqi hokimiyati va mustaqillik davri siyosiy-madaniy kontekstida ilmiy o‘rganila boshlandi. Bu davrda kulolchilikni o‘rganish texnik-hunarmandchilik jihatlaridan tashqari, milliy identiklik, ijtimoiy munosabatlar va estetik qadriyatlarining murakkab tizimi sifatida talqin qilish bilan bog‘liq metodologik muammolar yuzaga keldi.

Tadqiqotning dolzarbligi bir necha omil bilan belgilanadi. Birinchidan, globallashtirish va turizm ta’sirida mahalliy maktablar – Rishton (ko‘k ishqoriy sir), G‘ijduvon (qahvarang-yashil tonlar), Xiva (o‘ziga xos shakl va ornamentlar), Samarqand (rangli polixromiya) – an’analari transformatsiyaga uchramoqda (Narzullaev, 2023). Ikkinchidan, sovet davri tarixshunosligida ideologik cheklovlar badiiy va semantik jihatlarni ikkinchi darajaga tushirdi. Uchinchidan, mustaqillikdan keyingi davrda (1991 yildan so‘ng) milliy merosni qayta tiklash va zamonaviy talqin yangi ilmiy yondashuvlarni yuzaga keltirdi (Karimov, 2012).

Maqolaning maqsadi XX asr tadqiqotlari misolida O‘zbekiston kulolchilik san’ati tarixshunosligining evolyutsiyasini bosqichma-bosqich tahlil qilish, asosiy metodologik o‘zgarishlarni aniqlash va keyingi izlanishlar uchun ochiq yo‘nalishlarni belgilashdir. Tadqiqot savollari: kulolchilikni o‘rganishda qanday paradigmalarni almashinuvi kuzatildi? Mahalliy maktablar xususiyatlari qay darajada chuqur talqin qilindi? Bezak-naqshlar semantikasi va terminologiyasidagi muammolar nimalardan iborat?

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, XIX asr oxiri – XX asr boshidagi ilk kuzatuvlardan (Semyonov, Razvadovskiy) boshlab, sovet monografiyalari (Peshcherova, 1959; Rakhimov, 1961) va albomlari (Derviz et al., 1975) gacha tadqiqotlar faktologik tavsifdan nazariy-semantik talqinga o‘tdi. Mustaqillik davrida yangi ishlar (masalan, Rahimovlar va

Narzullaevlar sulolalari tadqiqotlari) an'analarni saqlash va innovatsiyalarni o'rganishga e'tibor qaratmoqda. Bu tadqiqot tarixshunoslik nuqtayi nazaridan sohadagi bosqichlarni yaxlit tizim sifatida qayta talqin qilish orqali ilmiy yangilikka erishadi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqot asosan tarixshunoslik usuliga tayanadi, bu XX asr manba va tadqiqotlarini xronologik, tematik va mualliflar bo'yicha tahlil qilish imkonini beradi. Qiyosiy usul turli davrlardagi ilmiy yondashuvlarni solishtirish, paradigmalarni almashinuvini aniqlash uchun qo'llanildi. Manbashunoslik usuli ekspeditsiya materiallari, monografiyalar, albomlar va arxiv hujjatlarining asl matnlariga tayandi. Vizual tahlil kulolchilik buyumlari suratlari va zamonaviy fotomateriallar orqali badiiy xususiyatlarni talqin qilishda muhim rol o'ynadi. Qo'shimcha ravishda, zamonaviy manbalar (UNESCO materiallari, xalqaro ko'rgazmalar hisobotlari) va ustaxonalar faoliyati (Rishton – Rustam Usmanov ustaxonasi, G'ijduvon – Narzullaevlar markazi) qiyosiy kontekst uchun jalb qilindi. Tadqiqotda interdisiplinar yondashuv – san'atshunoslik, etnografiya, semiotika va madaniy antropologiya elementlari – qo'llanildi.

Natijalar:

Ilk kuzatuv va tavsifiy bosqich (XIX asr oxiri – XX asr boshi).

Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi davrida hududga kelgan sayyohlar va tadqiqotchilar mahalliy hunarmandchilikka qiziqish bildirdilar. N.E. Simakov, N.N. Shcherbin-Kramarenko, A.A. Semyonov, V.K. Razvadovskiy kabi mualliflar Rishton, G'ijduvon, Samarqand va Xorazm markazlari haqida dastlabki ma'lumotlarni yig'dilar. Ularning ishlari asosan tavsifiy xarakterga ega bo'lib, kulolchilikni ko'proq etnografik va ekzotik hunar sifatida talqin qildi.

Ekspeditsiya va muzeylashtirish davri (1920–1940 yillar).

Sovet hokimiyati davrida kulolchilikni o'rganish tizimli tus oldi. Ekspeditsiyalar tashkil etilib, buyumlar yig'ildi, hujjatlashtirildi va muzey fondlari boyitildi. Ishlab chiqarish jarayonlari – loy tayyorlash, shakllantirish, bezash, sirlash va kuydirish – batafsil qayd etildi. Mahalliy maktablarning hududiy ixtisoslashuvi ilmiy asosda aniqlashtirildi.

Etnografik-san'atshunoslik o'tish bosqichi (1950–1970 yillar).

E.M. Peshcherova (1959) va M.Q. Rahimov (1961) ishlari bilan kulolchilik texnologik va badiiy jihatdan kompleks o'rganila boshlandi. Rahimov bezak terminologiyasini ilmiy muomalaga kiritdi, naqshlarni madaniy ramz sifatida talqin qilishga urinildi. Bu bosqichda buyum alohida ob'ekt emas, balki ijtimoiy-madaniy tizim elementi sifatida ko'rila boshlandi.

Nazariy umumlashtirish va mustaqillik davri (1970 yillardan hozirgacha).

Mustaqillikdan keyin kulolchilik milliy identiklik va madaniy meros kontekstida qayta talqin qilindi. Rahimovlar va Narzullaevlar sulolalari an'ana va innovatsiyani uyg'unlashtirmoqda. Globallashtirish va turizm ta'siri mahsulot turlarining o'zgarishiga olib kelmoqda.

Muhokama:

XX asr kulolchilik tarixshunosligida tavsifiy yondashuvdan nazariy-semantik talqinga o'tish kuzatildi. Siyosiy kontekst metodologiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Sovet davrida faktologik baza mustahkamlandi, biroq semantik talqin cheklangan edi. Mustaqillik davrida milliy va global omillar birgalikda ta'sir ko'rsatmoqda. Bezaklarning kosmologik va marosimiy ma'nolari, terminologiya masalalari va texnologik transformatsiyalar hali ham to'liq o'rganilmagan.

Xulosa:

XX asr O'zbekiston kulolchilik san'ati tarixshunosligi evolyutsion rivojlanish bosqichlarini namoyon etdi: tavsifiy kuzatuv, faktologik yig'ish, san'atshunoslik talqini va nazariy umumlashtirish. Har bir bosqich o'z davrining siyosiy-madaniy konteksti bilan bog'liq

bo'ldi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, kulolchilik nafaqat hunarmandchilik sohasi, balki murakkab ijtimoiy-madaniy tizimdir.

Kelgusida bezaklar semantikasi, ustalar terminologiyasi, mahalliy maktablar qiyosiy tahlili va globallashuv ta'sirini chuqurroq o'rganish zarur. Interdisiplinar yondashuv bu yo'nalishlarda samarali natija berishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Derviz, G. G., Zhadova, L. A., Zhdanko, I. A., & Mitlianskiy, D. Yu. (1975). *Sovremennaya keramika narodnykh masterov Sredney Azii*. Moscow: Sovetskiy Khudozhnik.
2. Karimov, B. S. (2012). *Metamorphoses in the ceramics of Uzbekistan: Individuality and tradition*. «Sanat». Retrieved from <https://sanat.orexca.com/2012/2012-3/metamorphoses-in-the-ceramics-of-uzbekistan-individuality-and-tradition>
3. Narzullaev, A. (2023). *Gijduvan ceramics: Traditions of six generations*. International Folk Art Market. Retrieved from <https://folkartmarket.org/ifamartiststories/gijduvan-crafts-centre>
4. Peshcherova, E. M. (1959). *Goncharnoe proizvodstvo Sredney Azii*. Moscow: Izdatelstvo Akademii Nauk SSSR.
5. Rakhimov, M. K. (1961). *Khudozhestvennaya keramika Uzbekistana*. Tashkent: Izdatelstvo Akademii Nauk UzSSR.
6. Usmanov, R. (2023). *Preservation and development of national pottery traditions (on the example of Rishton school)*. International Journal of Scientific Research, 12(5).